



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 06 | pp. 62-67 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

CHAKANA SAVDONI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI



Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti talabasi

Abdullayev Ilyos Sultanovich

Ilmiy rahbar, iqtisodiyot fanlari doktori professor

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada chakana savdoni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar tahlili, o'ziga xos afzalliklari, mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo'nalishlari, amalga oshirish usullari hamda mavjud imkoniyatlarni takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Аннотация. В статье рассматривается анализ факторов, влияющих на развитие розничной торговли, ее конкретные преимущества, направления эффективного использования имеющихся возможностей, методы реализации, а также вопросы совершенствования имеющихся возможностей.

Abstract. This article discusses the analysis of factors affecting the development of retail trade, its specific advantages, directions for the effective use of existing opportunities, methods of implementation, and issues of improving existing opportunities.

Kalit so'zlar. Chakana savdo, xizmat ko'rsatish, raqobat, iste'molchi, mijozlarga xizmat, iqtisodiy rivojlanish.

Ключевые слова. Розничная торговля, сфера услуг, конкуренция, потребитель, обслуживание клиентов, экономическое развитие.

Key words. Retail trade, service, competition, consumer, customer service, economic development.

Kirish

Bugungi kunga kelib, chakana savdo jadal rivojlanib kelayotgan sohalardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bois, ushbu sohaga alohida katta urg'u berilmoqda. Bu borada mamlakatimizda savdo sohasi, xususan, chakana savdoni rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sishni ta'minlash maqsadida kelgusi 5 yil ichida aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1,6 baravar va 2030-yilga borib, ushbu ko'rsatkich orqali aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollardan oshirish, shu bilan birga daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish" ustuvor vazifa qilib belgilangan [1]. Mazkur vazifalarning samarali amalga

oshirish bevosita chakana savdo tizimida mijozlarga yo'naltirilgan boshqarish va savdoda erkin raqobat muhitini shakllantirish hamda chakana savdoda sotish tizimini takomillashtirishni talab etadi. Jahon bo'yicha ko'pgina mamlakatlar ham iqtisodiyotni ushbu tarmog'idan keng tarzda foydalanmoqdalar. Chakana savdoning imkoniyatlari va o'rni tobora kengayib bormoqda. Bunga sabab bo'lib, uning keng tarzda qo'llanilishi bilan belgilanadi. Bu borada **chakana savdoda global tendensiylar rivojlanmoqda. Ya'ni, bu borada jahon** bo'ylab chakana savdoning rivojlanishi yangi texnologiyalar va globalizatsiya jarayonlariga bog'liq bo'lmoqda. Elektron tijorat (e-commerce), onlayn to'lov tizimlari, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (big data) chakana savdoning kelajakda rivojlanishini belgilovchi asosiy omil sifatida qaralmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Chakana savdoni rivojlantirish va unga ta'sir qiluvchi omillar tahlili borasida turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, iqtisodiyot o'sishi, daromad darajasi va xarid qobiliyati chakana savdoni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Qator ilmiy ishlarda iqtisodiy o'zgarishlar va infliyatsiyaning chakana savdoga ta'siri o'rganilgan [2]. Ular iqtisodiy barqarorlikning chakana savdo sohasidagi muvaffaqiyatga bevosita ta'sir qilayotganligi tahlil qilingan. Demografik o'zgarishlar, iste'molchilar turmush tarzidagi o'zgarishlar, ular ehtiyojlari va xohishlari chakana savdoni shakllantiruvchi asosiy omillar bo'lib hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy tahlillar chakana savdoning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda rivojlanishini tadqiq qiladi. Texnologiyaning chakana savdoga ta'siri, ya'ni onlayn savdo kengayishi, mobil ilovalar va sun'iy intellektni joriy etilishi, zamonaviy tadqiqotlar tomonidan o'rganilgan [3]. Internet savdosi va tovarlarni onlayn sotishning o'sishi chakana savdoni global miqyosda rivojlantirishga imkon beradigan omillar sifatida taqdim etilgan.

Adabiyotlar sharhi

Chakana savdo iqtisodiyotning eng dinamik tarmoqlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi ichki iste'mol, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari bilan chambarchas bog'liq. Ko'plab olimlar chakana savdoning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni turli yo'naliishlarda o'rganib chiqqanlar. Jumladan, Kotler F. o'zining "Marketing Management" asarida chakana savdo muhitini shakllantiruvchi tashqi omillar – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik (PEST) omillarni asosiy o'ringa qo'yadi [1].

A. Smith va D. Ricardo kabi klassik iqtisodchilar bozor infratuzilmasi va narx mexanizmining chakana savdo samaradorligiga ta'sirini o'rganishgan. Ularning ishlari chakana savdoda erkin raqobat muhitini yaratish muhimligini ko'rsatadi [2].

M. Porter esa o'zining raqobat ustunligi nazariyasida chakana savdoning rivojlanishida sanoat tahlili, ta'minot zanjiri, xaridor xatti-harakatlari va logistikani o'rganishni taklif qiladi [3]. Unga ko'ra, chakana savdo subyektlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bozor segmentatsiyasi va innovatsion xizmatlarga bog'liq.

O'zbekistonda so'nggi yillarda chakana savdoni modernizatsiya qilish, elektron savdoni kengaytirish, yirik savdo tarmoqlari va bozorlarga investitsiya jalb etish orqali sektorni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rilmoxda. M.S. Raximov o'z tadqiqotlarida O'zbekistonda chakana savdo hajmining yilma-yil oshib borayotganini,

ayniqsa urbanizatsiya, aholi daromadlarining oshishi va iste'mol madaniyatining o'zgarishi asosiy omillar sifatida ta'kidlaydi [4].

Saidova D. esa O'zbekistonda chakana savdoni rivojlantirishda hududlar o'rtasidagi tafovut, transport-logistika tizimi va savdo-sotiq infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi kabi omillarni chuqr tahlil qilgan. U mintaqaviy tengsizliklarni yumshatish uchun davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish zarurligini ko'rsatgan [5].

Shuningdek, xalqaro tajribada Turkiya, Polsha, Xitoy kabi davlatlarda chakana savdo sektori sanoat va turizm bilan integratsiyalashuv orqali rivojlanayotgani kuzatiladi. Masalan, Zhang et al. (2020) tomonidan Xitoyda olib borilgan tadqiqotda chakana savdoga smart texnologiyalar, onlayn savdo platformalari va mobil to'lov tizimlarining ta'siri yuqori baholangan [6].

Hozirgi davrda chakana savdoning raqamlashtirilishi (digitallashuvi), fintech xizmatlarining kengayishi va "smart retail" texnologiyalarining joriy etilishi – bu tarmoqni rivojlantirishda asosiy drayverlar sifatida qaralmoqda. Sh. Tursunovning fikricha, O'zbekistonda chakana savdoning barqaror rivojlanishi uchun davlat siyosati doirasida soliq yengilliklari, yirik savdo markazlarini qo'llab-quvvatlash va iste'mol kreditlarining ommalashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi [7].

Muhokama va natija

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, ushbu omillar ta'sirini juda ko'p xorijiy va mamlakatimiz olimlari e'tirof etgan. Ammo, ushbu omillar ta'sirini aniqlash bo'yicha xorijiy va mamlakatimiz olimlari shug'ullanmagan. Chunki, nashr qilingan va elektron tarzda e'lon qilingan aholi farovonligi va savdo bilan bog'liq birorta adabiyotda ushbu masala yoritilmagan. Biroq aholining farovonligiga ta'sir etuvchi sohalardan biri va asosiysi savdo sohasi bo'lib hisoblanadi. Bularni inobatga olib, savdo sohasining aholi farovonligiga ta'sirini hisoblash obyektiv zarurat ekanligini qayd etish lozim. Buning uchun aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot o'zgarishiga savdo sohasining ta'sirini hisoblash usulini ishlab chiqishni maqsadga muvofiq.

Ushbu soha bilan bog'liq omillar ta'sirini aniqlashning modelini ishlab chiqish lozim. Shu bois, chakana savdoni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar turli yo'nalishlarda tahlil qilinadi. Chunki, chakana savdo - tovarlar va xizmatlarni yakuniy iste'molchilarga sotish jarayonidir [4]. U iqtisodiyot sektori sifatida iste'molchilar talabining shakllanishi, ishlab chiqarish va taqsimot jarayonlari samaradorligi hamda ish o'rnlari yaratish kabi bir qancha iqtisodiy jihatlarni o'z ichiga oladi. Chakana savdoning rivojlanishi iqtisodiy o'sish hamda ijtimoiy-texnologik o'zgarishlar ushbu sohaning yanada rivojlanishiga ta'sir qiladi. O'zbekistonda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, yangi tarmoq va bozorlarning shakllanishi hamda xalqaro savdoning o'sishi chakana savdo sohasiga alohida e'tibor qaratilishini talab qiladi [5]. Boshqa bir tadqiqotlarda chakana savdoni rivojlanishining turli omillari tadqiq qilingan. Xususan, bu borada chakana savdoni rivojlantirishda mamlakat ichki va tashqi omillar (hukumat siyosati, xalqaro aloqalar, iste'mol talablar) roli ko'rib chiqiladi [6].

Shulardan kelib chiqib, chakana savdoning rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

Chakana savdoning rivojlanishiga turli omillar ta'sir qiladi. Ular quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'ladi:

- **iqtisodiy omillar:** Iqtisodiy o'sish, daromad darajasi, inflyatsiya va iste'molchilar xarid qilish qobiliyati.

- **ijtimoiy omillar:** Demografik o'zgarishlar, turmush tarzining o'zgarishi hamda iste'molchilar ehtiyojlari va xohishlari.

- **texnologik omillar:** Internet savdosi, mobil ilovalar va tovarlarni onlayn sotish kengayishi.

- **huquqiy va normativ omillar:** Savdo qonunlari, soliq siyosati va eksport-import qoidalari.

- **mikro va makro muhit:** Raqobat darajasi, iste'molchilarning brendga bo'lgan qiziqishi va boshqa tashqi omillar.

Darhaqiqat, chakana savdoni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi quyidagi omillar tahlil qilinadi:

1) Iqtisodiy omillar:

- daromad darajasi: Aholining umumiy daromad darajasi chakana savdoni rivojlantirishga alohida ta'sir ko'rsatadi. Agar aholi daromadi yuqori bo'lsa, ular ko'proq xarid qilishga moyil bo'ladi.

- ishsizlik darajasi: Ishsizlik darajasi yuqori bo'lsa, aholi xarid qilish imkoniyatlariga ega bo'lmaydi. Bu esa chakana savdoga salbiy ta'sir qiladi.

- inflyatsiya: Inflyatsiya darajasining oshishi narxlarning ko'tarilishiga olib keladi. Bu esa iste'molchilarni xarid qilishda ehtiyyotkor qilishga undaydi.

2) Sotsiologik omillar:

- ijtimoiy odatlар va madaniyat: Aholining xarid qilish odatlari, iste'mol qilish madaniyati chakana savdoga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, e-tijorat o'sishi yoki an'anaviy do'konlarga nisbatan onlayn xaridlarning ommalashishi shularga kiradi.

- demografik tuzilma: Yoshi, jinsi, oilaviy holat kabi demografik faktorlar xarid qilish xulq-atvoriga ta'sir qiladi. Masalan, yosh va texnologiyalarni yaxshi biladigan shaxslar onlayn savdoga ko'proq e'tibor berishi mumkin.

3) Texnologik omillar:

- internet va raqamli texnologiyalar: Internet va raqamli texnologiyalar chakana savdoni tez rivojlantiradi. E-tijorat va onlayn savdolarni kengaytirish orqali chakana savdo bozori global miqyosda rivojlanmoqda.

- innovatsiyalar: Yangi mahsulotlar va xizmatlar, shu jumladan, innovatsion marketing strategiyalari chakana savdoga yangi imkoniyatlar yaratadi.

4) Raqobat muhiti:

- raqobatchilar: Raqobatning kuchli bo'lishi chakana savdo sohasidagi narxlar va sifatni yaxshilashga majbur qiladi. Raqobatchilarning yangi mahsulot yoki xizmatlar taqdim etishi bozorni kengaytiradi.

- markalar va brendlari: Kuchli brendlari, mijozlarni jalb qilishda katta rol o'yнaydi. Brendning tanilishi va sifati chakana savdoning muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi.

5) Hukumat siyosati va qonunchilik:

- soliq siyosati: Soliqlar va bojxona tariflari chakana savdoga ta'sir qiladi. Agar hukumat tomonidan qo'yilgan soliqlar yuqori bo'lsa, bu chakana savdoning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

- reklama va marketing qonunlari: Hukumat tomonidan qo'yilgan reklamaga oid cheklovlar yoki marketing strategiyalari chakana savdoning faoliyatini cheklashi mumkin.

6) Ekologik omillar:

- atrof-muhit va ekologik xavotirlar: Yashil texnologiyalar va ekologik mahsulotlarga talabning ortishi bevosita chakana savdoda yangi tendensiyalarni yaratadi. Masalan, ekologik toza mahsulotlar, organik oziq-ovqatlar va boshqa yashil mahsulotlarga bo'lgan talabning oshishi shularga kiradi.

7) Transport va infratuzilma:

- logistika va yetkazib berish tizimi: Yaxshi rivojlangan transport va logistika tizimlari chakana savdoning samarali ishlashini ta'minlaydi. Onlayn savdoning o'sishi bilan birgalikda yetkazib berish tezligi va sifati muhim ahamiyat kasb etadi.

8) Mijozlar ehtiyojlari va xulq-atvori:

- Mijozlar ehtiyojlari: Chakana savdo muvaffaqiyati ko'pincha mijozlar ehtiyojlarini qondirishga bog'liq bo'ladi. Mijozlar qaerda, qanday va qachon xarid qilishni xohlashi tadqiq qilinadi. Bu savollarga javob berish chakana savdoni rivojlantirishda muhim omil bo'ladi.

- texnologiya va mobil ilovalar: Mobil telefonlar orqali xarid qilish, smartfonlar yordamida savdo qilishning o'sishi va chakana savdoning rivojlanishiga imkon beradi.

Aholining farovonligini ifodalovchi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot o'zgarishiga (YaIM) savdo sohasi samaradorligi bilan bog'liq bir qancha omillar ta'sir qiladi [6]. Bular tarkibiga quyidagilar kiradi:

- bir ming so'm savdo aylanmasiga to'g'ri keladigan YaIM summasi;

- savdo aylanmasining savdo sohasida band bo'lgan bitta xodimga to'g'ri kelgan summasi;

- savdo sohasi xodimlarining aholi sonidagi hissasi.

Umuman olganda, chakana savdo tarmog'ini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi hududiy omillarni tahlil qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni toplash, tizimlashtirish va solishtirish uchun tegishli hisob-kitoblarni amalga oshirish;

- tovar zaxiralari umumiylajmi va assortimenti bo'yicha o'zgarishlarni aniqlash, agar normativ o'rnatilgan bo'lsa, har birini shu normativlar bilan qiyoslash;

- tovar zahiralari umumiylajmi dekada, oy, kvartal hamda yil boshi va oxiri bo'yicha tahlil qilish va ularning ham o'zgarish tendensiyalariga baho berish;

- tahlil qilinayotgan korxona yoki shoxobchada xuddi shunday hisob-kitobni tovar assortimentlari bo'yicha aniqlash;

- tovar zaxiralari ko'rsatkichlari dinamikasini o'rganish, uni boshqa savdo shoxobchalari, korxonalari (raqobatchilar), tuman, viloyat, respublikaning ko'rsatkichlari bilan solishtirish va baho berish;

- tovar zaxiralari xajmi, tarkibi va uning nisbiy ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish va ularning ta'sirini hisoblash;

- aniqlangan va baholangan xolatni takomillashtirish bo'yicha xulosalar chiqarish, takliflar tayyorlash va chora-tadbirlar ishlab chiqarish.

Chakana savdo tarmog'ini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi hududiy omillar alohida o'rinni tutib, uni tahlili bevosita sohani rivojlanishi uchun yangi yo'nalish bo'lib xizmat

qiladi. Ular qatoriga chakana savdo sohasida hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibini takomillashtirishni kiritish mumkin. Shu bois, sohani rivojlanishida eng muhim omil bo'lib, chakana tovar aylanishi, tovar zaxiralari, shuningdek, obyektiv va subyektiv omillar keng qo'llaniladi.

Xulosa

Chakana savdoni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar ko'p xil jihatlarga ega bo'lib, ular bir-biriga bog'langan holda taraqqiy qiladi. Ularning barchasini birgalikda hisobga olish chakana savdoning muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim rol o'yнaydi. Har bir omilning o'zaro aloqasi va ta'siri savdo jarayonini optimallashtirish uchun asosiy yondashuvlarni aniqlashga imkon beradi. Chakana savdoning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'r ganish bevosita sohada faoliyat yuritayotgan kompaniyalar uchun marketing strategiyalarini to'g'ri belgilash hamda iste'molchilarga eng mos xizmatlar va mahsulotlarni taklif qilish imkonini yaratadi. Bu esa iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Khan L. The Role of Artificial Intelligence in Retail. // Retail Innovations Review, 2022.
3. Williams P. Technology and Retail Trade: The Future of E-Commerce. // International Journal of Retail and Technology, 2021.
4. G'ulomov B. Chakana savdoning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri: Yangi yondashuvlar. // Iqtisodiyot va marketing jurnali, 5(22), 2018. - 32-40 b.
5. Kamarov A. Chakana savdo va uning rivojlanish omillari: O'zbekiston tajribasi. // O'zbekiston iqtisodiyoti va biznesi, 2019, 3(12). - 45-56 b.
6. Samatov D. O'zbekistonda chakana savdo sohasining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar. // O'zbekiston iqtisodiyoti va chakana savdo, 2021, 7(16). - 78-89 b.
6. Artikov Z.S. Aholi hayot darajasi va sifatini oshirishda savdo xizmatining o'rni: Z.S.Artikov./Monografiya/ - Samarqand: "FAN BULOG'I" Nashriyoti, - 2021. – 82-96 b.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

